Ma'rifatparvar ijodkor Mahmudxo'ja Behbudi "Ehtiyoji millat" maqolasida ushbu masalani shunday izohlaydi: "Boshqa millatlarga qaralsa, ko'rulurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o'qilur. Chunki dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur" [1, 56-bet].

Jadidlarning Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi faoliyat yo'nalishlari asosan quyidagilardan iborat bo'lgan:

- yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish va qobiliyatli yoshlarni chet elga (Istanbul, Qohira, Qozon, Ufa, Orenburg, Germaniya) o'qishga yuborish;



- ma'rifiy jamiyatlar ("Nashri maorif", "Turon", "Sho'roi Islom") va teatr truppalari tashkil etish;
- milliy matbuot hamda nashriyot ishlarini yo'lga qo'yish;
- xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish orqali milliy davlatchilik g'oyasini ilgari surish.

1917-yilda tuzilgan Turkiston Muxtoriyati (Qo'qon) va Buxoro Xalq Respublikasidagi maorif sohasidagi islohotlar bevosita jadid ziyolilari tomonidan amalga oshirilgan.

Jadid taraqqiyparvarlari tomonidan tashkil etilgan yangi usul maktablari eski ("usul-i qadim") maktablardan keskin farq qilar edi. Birinchidan, maktab binolari gigiyenik va pedagogik talablarga mos tarzda jihozlangan, darsxonalarda parta, stol, stul, doska, xarita va globuslar mavjud bo'lgan; ikkinchidan, o'qitish "usuli savtiya", ya'ni analitik-tovush metodi asosida tashkil etilgan, o'qish va yozish birgalikda o'rgatilgan; uchinchidan, o'quv dasturi arab yozuvi va xat-savod bilan bir qatorda arifmetika, tabiatshunoslik, geografiya, tarix, ona tili grammatikasi, she'riyat hamda axloq fanlarini qamrab olgan.

Jadid ma'rifatparvari Is'hoqxon Ibrat 1885-yilda o'z qishlog'i To'raqo'rg'onda ilk jadid maktablaridan biriga asos solgan. Uning maktabi hijo metodiga asoslangan "usuli qadim" maktablaridan tubdan farq qilar edi. U o'z xotiralarida shunday yozadi: "Mana, emdi banda o'zum usuli savtiyaning avlodi islomg'a yordamini ko'rub, o'z masjidimizda maktab ochdim. Bir sanada ko'b yoshlar, hattoki katta yoshga kirgan tujjorlardan o'qub, xat-savodini chiqorib, maishat va tijoratlarida osonliklar mushohada qildilar" [2, 15-bet].

Is'hoqxon Qo'qonda o'qib yurgan vaqtlaridayoq o'lkada rus va mahalliy millat bolalari uchun ochila boshlagan rus-tuzem maktablaridagi o'qitish usullarining mahalliy maktablarda hukm surayotgan hijo hamda quruq yodlash usulidan ancha ustun ekanligini kuzatgan edi. U o'z maktabiga nisbatan ilg'or bo'lgan, savodga o'rgatishda yengillik yaratadigan usuli savtiyani, hozirgi atama bilan aytganda, analitik-tovush metodini tatbiq qildi va uni "usuli qadim" tarafdorlari hamda mutaassib din peshvolari tanqidlaridan himoya qildi [3, 27-bet].

Pedagogik jihatdan usul-i savtiya metodining afzalliklari shundan iborat ediki, bola bir yil ichida mustaqil o'qish va yozish ko'nikmasini egallay olar, an'anaviy maktablarda esa 4-5 yil talab etiladigan savod chiqarish jarayoni keskin qisqartiriladi. Bu metod Ismoil Gasprali tomonidan 1884-yilda o'zining Bog'chasaroydagi maktabida sinovdan o'tkazilgan va "Xoja-i sibyon" darsligi (1884) orqali tizimlashtirilgan bo'lib, keyinchalik Turkiston, Qozon, Ufa, Boku va Orenburg shaharlariga ham joriy etilgan. Munavvar qorining "Adibi avval" (1907) va "Adibi soniy" (1907) darsliklari usul-i savtiya metodiga asoslangan ilk o'zbek darsliklari hisoblanadi. Jadidlarning asosiy maqsadi dunyoviy ilmlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash, ularning ma'naviy ongini yuksaltirish hamda o'z vazifasini bajara olmay qolgan eskicha ta'lim tizimiga yangicha innovatsion g'oyalarni singdirish edi. Shu bilan birga, ular yangi maktablarga muallimlar tayyorlash masalasiga ham birinchi darajali vazifa sifatida qaraganlar. Qobiliyatli yoshlar Istanbul, Qohira, Qozon, Ufa, Orenburg, Berlin va Lozanna shaharlariga o'qishga yuborilgan. Masalan, 1909-1914-yillarda Istanbulga Abdurauf Fitrat boshchiligidagi "Buxoroyi sharif" maorif jamiyati orqali 40 dan ortiq talaba yuborilgan.

Taniqli jadid ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy va Rajabaminlik Abdulqodir Shakuriy bilan hamkorlikda yangi usul maktabi ochgan. Behbudiy 1903-1904-yillarda Qozon va Ufaga borib, u yerdagi yangi usul maktablari faoliyati bilan tanishgan, tatar ziyolilari – Rizouddin ibn Faxruddin, Musa Jorulloh Bigiyev va Abdulla Bubi bilan aloqalarni yo'lga qo'ygan. Shundan so'ng yangi maktablar uchun darsliklar yaratishga kirishgan. Xususan, "Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiasiga kirish", 1905), "Muntahabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Kitobat ul-atfol" ("Bolalar xati", 1908), "Amaliyoti islom" (1908), "Tarixi islom" (1909) kabi asarlarini nashr ettirgan. Keyinchalik, 1908-yilda Shakuriyning Rajabamindagi maktabini Samarqanddagi o'z hovlisiga ko'chirib keltirgan.

Laziz Aizzoda o'z xotiralarida Behbudiyning shaxsiga xos ibratli fazilatlarini shunday ta'rifiydi: "Behbudiy irodasining kuchliligi, muomalada favqulodda ustaligi, dialektikligi, nazariyotchiligi ila barobar amaliyotchiligi, har ishni hayotdan olishligi va iqtisodg'a ahamiyat berishi ila o'z zamondoshlaridan ayrilib, o'ziga maxsus muhim bir o'run oladi. Ul o'zi Turkistonning eski madrasasidan chiqqan bir kishi bo'lg'on holda arab dorilfununlarini bitirib kelgan kishilarning qilmag'on xizmatlarini ado qilib ketdi" [4, 2-bet].

Munavvar qori Abdurashidxonov (1878-1931) Toshkent jadidchilik harakatining asoschi yetakchilaridan biri hisoblanadi. U 1901-yilda Toshkentning Degrez mahallasida birinchi usul-i jadid maktabini ochgan, 1907-yilda "Taraqqiy" va "Xurshid" gazetalarining tashkilotchilaridan bo'lgan. Uning "Adibi avval" (1907), "Adibi soniy" (1907), "Hisob masalalari" (1910), "Tajvid" (1911) darsliklari Turkistondagi usul-i jadid maktablarida keng qo'llanilgan. 1914-yilda "Sho'roi Islom" jamiyatini tashkil etishda faol ishtirok etgan, 1917-yildagi Turkiston Muxtoriyati hukumatida maorif masalalariga mas'ul bo'lgan. Abdulla Avloniy (1878-1934) pedagogik merosining markazida 1913-yilda chop etilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari turadi. Ushbu asar o'zbek tilidagi ilk mukammal pedagogik-axloqiy qo'llanmalardan biri hisoblanadi. Asarda muallif tarbiyani "hayoti millat uchun yo najot, yo halokat, yo saodat, yo musibat" deb ta'rifiydi hamda yigirmadan ortiq axloqiy fazilatlarini (adolat, sabr,

shukr, himmat, g'ayrat, vatan muhabbati va boshqalar) pedagogik jihatdan tahlil qiladi. Avloniyning "Birinchi muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912), "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909-1915, 4 qism) darsliklari ham milliy pedagogikaning muhim manbalari hisoblanadi. U 1913-yilda "Turon" dramatik truppasini tashkil etgan, "Shuhrat" (1907) va "Sadoyi Turkiston" (1914-1915) gazetalari muharrirlik qilgan.

Abdurauf Fitrat (1886-1938) jadidchilikning falsafiy-ma'rifiy yo'nalishini nazariy jihatdan boyitgan mutafakkir hisoblanadi. U 1909-1913-yillarda Istanbulda tahsil olgan va shu yerda "Munozara" (1909) hamda "Bayonoti sayyohi hindi" (1912) asarlarini nashr ettirgan. Fitratning "Rahbari najot" (1915) va "Oila" (1914) asarlari oilaviy tarbiya hamda milliy maorif masalalariga bag'ishlangan. 1918-yilda Toshkentda "Chig'atoy gurungi" ilmiy-adabiy jamiyatiga asos solgan. Buxoro Xalq Respublikasida maorif noziri lavozimida faoliyat yuritgan. 1937-yilda qatag'on qililib, 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan. Is'hoqxon Ibrat (1862-1937) ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyati bilan bir qatorda, o'z qishlog'i To'raqo'rg'onda 1908-yilda "Matbaai Is'hoqiya" bosmaxonasini tashkil etgan va u yerda milliy darsliklar, lug'atlar hamda ilmiy-tarixiy asarlarni chop ettirgan. Uning "Lug'ati sittati al-sina", "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat" asarlari milliy tarix va tilshunoslikning muhim yodgorliklari hisoblanadi. Ibrat Osiyo va Yevropa bo'ylab uzoq safarlar qilgan (Istanbul, Qohira, Bombay, Beyrut, Quddus) va olgan taassurotlari asosida maorifni isloh qilish g'oyalarini ishlab chiqqan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) Qo'qonda yangi usul maktabini tashkil etgan, "Yengil adabiyot" (1914) kabi o'quv kitoblarini yaratgan hamda "Sadoyi Farg'ona" gazetasi tashkilotchilaridan bo'lgan. Uning pedagogik faoliyatidagi muhim jihatlardan biri o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida she'riyat mashqlari, mushoiralar va badiiy o'qishlar an'analarini joriy etganligidir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadid ma'rifatparvarlari yangi maktablar uchun milliy tilda darsliklar yaratish masalasini ustuvor vazifa sifatida qabul qilganlar. Mazkur darsliklar nafaqat til-savod o'rgatish, balki yosh avlodga milliy ong, axloqiy tarbiya, fan asoslari va dunyoviy bilimlarni shakllantirishni ham ko'zda tutgan. XX asr boshlaridagi Turkistonda chop etilgan eng mashhur jadid darsliklari quyidagilardan iborat: Ismoil Gaspralining "Xoja-i sibyon" (Bog'chasaroy, 1884), Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval" (1902), Ali Asqar Kalining "Muallimi avval" (1903), Mahmudxo'ja Behbudiyning "Risoi asbobi savod" (1904) va "Kitobat ul-atfol" (1908), Munavvar qorining "Adibi avval" va "Adibi soniy" (1907), "Hisob masalalari" (1910), Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912), "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), Abdurauf Fitratning "Rahbari najot" (1915), Saidrizo Alizodaning "Maktab gulzori" (1911) hamda Hamza Hakimzodaning "Yengil adabiyot" (1914) asarlaridir.

Ammo bu davrda matbuotda yangi maktablar faoliyatidagi kamchiliklar haqida ham tanqidiy fikrlar bayon etilgan. 1909-yil 10-sentyabrda chop etilgan "Samarqanddan maktub" nomli maqolada muallif bir shahardagi uchta yangi maktabning barchasi alohida uslubda faoliyat yuritayotgani, ya'ni yagona dastur asosida ishlayotganini ta'kidlagan. U, agar Turkistondagi taxminan 50 ta yangi maktab turli dasturlar asosida ta'lim bersa, bu holat eski maktablarga nisbatan ham zararli bo'lishini qayd etgan. Behbudiy yangi usul maktablarining o'quv dasturi yetarli darajada rivojlanmaganidan jiddiy xavotirda bo'lgan. 1907-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy Andijon, Marg'ilon, Qo'qon va Xo'janddagi usul-i jadid maktablarining ahvoli bilan tanishib, ularning o'quv dasturlarida geografiya va tarix fanlari mavjud emasligini afsus bilan qayd etgan. Shunga qaramay, Behbudiy jadid maktablari "ilmi diniy va olami zamoniy"ni birlashtirishga intilayotganini yozgan. 1913-yildan boshlab Farg'ona viloyatidagi yangi usul maktablari o'quv dasturlariga tabiatshunoslik va geografiya fanlari ham kiritilgan ^[5, 2-bet].

Bu ma'lumotlar jadid ma'rifatparvarlarining o'zlari ishlab chiqqan ta'lim tizimiga tanqidiy-refleksiv munosabatda bo'lganliklaridan dalolat beradi. Ular yangi maktablarni nafaqat kengaytirish, balki ularning pedagogik sifatini oshirish, o'quv dasturlari va darsliklarni standartlashtirishni ham muhim vazifa deb bilganlar. Bu jihat jadid pedagogik merosining menejment va pedagogik monitoring amaliyoti bilan bog'liqligini ko'rsatadi hamda zamonaviy maktab boshqaruvi uchun qimmatli tajriba sifatida baholanishi mumkin.

Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik konsepsiyalarini tizimlashtirish asosida ularning quyidagi yetakchi tamoyillarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, ma'rifatparvarlik tamoyili – jamiyatni yangilashning birlamchi omili ilm-ma'rifat ekanligiga asoslangan yondashuvdir. Jadidlar ma'rifatni individual emas, balki millat va jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida talqin qilganlar.

Ikkinchidan, milliy uyg'onish tamoyili – ta'lim-tarbiyaning milliy o'zlikni tiklash, til, madaniyat va tarixiy merosni asrab-avaylash vazifasi bilan uzviy bog'liqligidir. Gaspralining "Tarjimon" gazetasida ilgari surilgan "Dilda, fikrda, ishda birlik" shiori ushbu tamoyilning yorqin ifodasidir.

Uchinchidan, zamonaviy ta'lim tamoyili – an'anaviy maktabdan farqli ravishda ilmiy-texnik bilimlar, tabiiy fanlar, geografiya, tarix, matematika va chet tillarini o'qitishga asoslangan yondashuvdir. Bu tamoyil Behbudiyning "ilmi diniy va olami zamoniy"ni uyg'unlashtirish g'oyasida o'z aksini topgan.



To'rtinchidan, ijtimoiy faollik tamoyili – maktab va muallimning faqat o'quvchilar bilan emas, balki ota-onalar, mahalla va jamoatchilik bilan ham faol hamkorlikda ishlash zaruratini anglatadi. Jadidlar xayriya jamiyatlari, maorif fondlari hamda o'quv-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish orqali bu tamoyilni amaliyotga joriy qilganlar.

Beshinchidan, madaniy taraqqiyot tamoyili – matbuot, teatr, kutubxona, bosmaxona va jamoat kutubxonalarini orqali xalqning estetik-madaniy ongini yuksaltirishga qaratilgan. Ushbu tamoyil milliy madaniyatni zamonaviy shakllar bilan boyitishni nazarda tutadi.

Oltinchidan, axloqiy-tarbiyaviy tamoyil – Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tizimli ravishda bayon etilgan bo'lib, ta'limni faqat bilim berish emas, balki insonning komil shaxs sifatida shakllanish jarayoni deb talqin qiladi. Bunda Vatanga muhabbat, halollik, mehnatsevarlik va adolat kabi fazilatlar markaziy o'rin egallaydi.

Yettinchidan, ayollar savodxonligini ta'minlash tamoyili – jadidlar qizlarning maktabga qatnashishi va ayollar uchun o'quv muassasalarining tashkil etilishini ustuvor vazifa deb bilganliklarida namoyon bo'ladi. Masalan, 1906-yilda Toshkentda Munavvar qori rafiqasi Hosiyat oyim Halilova tashabbusi bilan qizlar uchun alohida jadid maktabi ochildi.

Jadidchilik harakati nafaqat pedagogik yangiliklarni hayotga tatbiq etish, balki ijtimoiy jihatdan milliy uyg'unlashni qo'llab-quvvatlashda ham muhim rol o'ynadi. Uning asosiy tamoyillari zamonaviy ta'lim, ona tiliga sadoqat, axloqiy tarbiya va ayollar savodxonligini oshirishga qaratilgan edi. Bu harakat Markaziy Osiyo jamiyatining zamonaviylashuvi va milliy o'zligini tiklash yo'lidagi betakror tarixiy bosqich bo'lib qoldi.

1917-yilgi Fevral inqilobidan so'ng jadidlar Turkiston Muxtoriyatining barpo etilishida (1917-yil 27-noyabr, Qo'qon) faol ishtirok etdilar. Muxtoriyat hukumatida Mustafo Cho'qay, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ubaydulla Xo'jayev va Munavvar qori kabi jadid arboblari turli lavozimlarda faoliyat yuritdilar. Biroq mazkur davlat tuzilmasi 1918-yil fevral oyida Qizil Armiya tomonidan tugatilgach, jadidlarga qarshi keng ko'lamli qatag'on boshlandi. Behbudiy 1919-yil mart oyida Qarshi shahrida sirlil ravishda qatl etildi. Munavvar qori 1929-yilda hibsga olinib, 1931-yilda otib tashlandi. Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon, Hamza va boshqa ko'plab jadid adiblari 1937-1938-yillardagi qatag'onlar qurboniga aylandilar.

Shunga qaramay, jadidlarning pedagogik-ma'rifiy merosining muayyan qismi Sovet davrida ham saqlanib qoldi. Jumladan, o'zbek tilida darsliklar yaratish an'anasi, usul-i savtiya metodi va maktab-oila hamkorligi amaliyoti keyingi davr pedagogikasiga integratsiyalashdi. Mustaqillik yillarida esa jadid merosini ilmiy o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Begali Qosimov, Sherali Turdiyev, Naim Karimov, Hamidulla Boltaboyev, Dilorom Alimova, Sirojiddin Ahmad, Ulug'bek Dolimov va Nabijon Boqiy kabi tadqiqotchilarning asarlari nashr etildi.

Jadidchilik harakatining pedagogik-boshqaruv tajribasi bugungi umumta'lim muassasalari rahbarlari faoliyati uchun bir qator dolzarb saboqlarni taqdim etadi.

Birinchidan, jadid ma'rifatparvarlari maktab faoliyatini tizimli rejalashtirish, o'quv dasturlari va darsliklarni standartlashtirish, pedagogik kadrlarni ixtisoslashtirilgan tarzda tayyorlash asosida tashkil etganlar. Bu esa zamonaviy menejment tilida strategik boshqaruv, sifat menejmenti va kadrlarni rivojlantirish tizimlari elementlari sifatida talqin etiladi.

Ikkinchidan, jadid maktablari mahalla, ota-onalar va xayriyaparvarlar bilan chuqur hamkorlikda faoliyat yuritgan. Masalan, Samarqanddagi “Behbudiya” maktabining moliyaviy ta'minoti Mirza Abdulvohid Munzim, Ajziy va Behbudiy kabi ziyolilar bilan bir qatorda shahar savdogarlari hamda hunarmandlari tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan. Bu tajriba zamonaviy maktab boshqaruvidagi “jamoatchilik boshqaruvi” (community governance), maktab-oila-mahalla hamkorligi modelining tarixiy ildizlarini ko'rsatadi.

Uchinchidan, jadidlarning matbuot va teatr orqali maorif g'oyalarini targ'ib etishi zamonaviy ta'lim kommunikatsiyasi hamda brendingi tamoyillariga hamohangdir. Bugungi kunda maktab direktori o'z muassasasi faoliyatini jamoatchilikka tanitish, ta'lim sifati masalalarini ommaviy muhokama maydoniga olib chiqish, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali ma'rifiy kontent tarqatish kabi vazifalarni bajaradi. Bu jihatlar jadidlar tajribasi bilan mazmunan uyg'unlashadi.

To'rtinchidan, jadid ma'rifatparvarlarining ayollar savodxonligi, inklyuziv ta'lim, axloqiy tarbiya va yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishga oid qarashlari UNESCOning 2030-yilgacha mo'ljallangan “Ta'lim-4” ustuvor yo'nalishlari (inklyuziya, sifat va teng imkoniyatlar) bilan hamohangdir. Mazkur yondashuv zamonaviy maktab rahbari kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan milliy-ma'naviy liderlikning shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston jamiyatining ma'rifiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan tarixiy hodisa hisoblanadi. Jadidlar jamiyatni yangilashning eng muhim omili sifatida ilm-fan, zamonaviy ta'lim va ma'rifatni rivojlantirishni ko'rdilar hamda shu maqsadda yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish, gazeta va jurnallar nashr etish, teatr truppalari va xayriya jamiyatlarini tuzish orqali xalqning savodxonligi hamda milliy ongini oshirishga xizmat qildilar.

Tadqiqotda quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

- 1) jadidchilik harakati tarkibiy jihatdan uch asosiy yo'nalishda - pedagogik (yangi maktab, usul-i savtiya, darslik), ma'rifiy-madaniy (matbuot, teatr, kutubxona) va ijtimoiy-siyosiy (milliy o'zlikni tiklash, davlatchilik g'oyasi) yo'nalishlarida rivojlangan;
- 2) jadid pedagogikasining asosi yetti asosiy tamoyil - ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, zamonaviy ta'lim, ijtimoiy faollik, madaniy taraqqiyot, axloqiy-tarbiyaviy yondashuv va ayollar ma'rifatini ta'minlashdan iborat;
- 3) jadid ma'rifatparvarlari (Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy, Fitrat, Ibrat, Hamza va boshqalar) faoliyatida zamonaviy ta'lim menejmentining ko'plab elementlari - strategik rejalashtirish, kadrlar tayyorlash, sifat monitoringi, jamoatchilik bilan hamkorlik, kommunikativ faollik, moliyaviy manbalarni jalb qilish tarixiy shaklda mavjud edi.

Jadidchilik harakati ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, milliy uyg'onish g'oyalarini shakllantirish va jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik g'oyalar - ta'limning dunyoviyligi, innovatsion o'qitish usullarini qo'llash, yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, milliy madaniyat va qadriyatlarni asrab-avaylash kabi tamoyillar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shuningdek, jadidlar faoliyati orqali ta'lim tizimida yangi pedagogik yondashuvlar, xususan, "usuli savtiya" asosida savod o'rgatish, fanlararo bilimlarni joriy etish hamda ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish kabi yangiliklar yuzaga kelgan. Bu jarayonlar nafaqat ta'lim sohasining rivojlanishiga, balki jamiyatning ijtimoiy ongini yuksaltirishga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Shu sababli jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyatini o'rganish bugungi ta'lim tizimini takomillashtirish, milliy pedagogik merosdan samarali foydalanish, umumta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini milliy pedagogik meros asosida rivojlantirish hamda zamonaviy ta'lim modelini takomillashtirishda muhim ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Jadid pedagogik merosini zamonaviy ta'lim menejmenti bilan integratsiyalash keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. 3-nashr. - Toshkent: "Ma'naviyat", 2006. - 344 b.
2. Dolimov U. Jadidlar. Is'hoqxon to'ra Ibrat: risola. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. - 208 b.
3. Ibrat Is'hoqxon. Tarixi Farg'ona. - Toshkent: Fan, 1991. - 136 b.
4. Azizzoda L. Behbudiy haqida xotira // "Ma'rifat" gazetasi. 1926-yil, 15-aprel. - 2-bet.
5. Turkistonda usul-i jadid maktablarini tashkil etish masalalari. - URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/turkistonda-usuli-jadid-maktablarini-tashkil-etish-masalalari> (murojaat sanasi: 2026-yil 20-aprel).
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. - Toshkent: Ma'naviyat, 2002. - 400 b.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 160 b.
8. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 5 jildli. - Toshkent: Ma'naviyat, 2000-2010.
9. Munavvar qori Abdurashidxonov. Xotiralar. To'plam. - Toshkent: Sharq, 2003. - 176 b.
10. Alimova D. Jadidchilik: yangilanish va taraqqiyot harakati. - Toshkent: O'zbekiston, 2000. - 128 b.
11. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent: Musiqqa, 2008. - 512 b.
12. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. - Toshkent: Adolat, 2004. - 240 b.
13. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. - Toshkent: Universitet, 2006. - 112 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PQ-6000-son qarori "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4829149>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son qarori "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-4071203>
16. Ahmad S. Jadidlar faoliyati tarixidan. - Toshkent: Sharq, 2010. - 256 b.
17. Rajabova M. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari: tarixiy-pedagogik tahlil. Ped. fan. nomz. diss. avtoref. - Toshkent.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.